

NOGIRONLIGI BO‘LGAN SHAXSLARNI DAVLAT TOMONIDAN HUQUQIY HIMOYA QILISH CHORALARI

Yaxshiboyev Mirvohid Gulboy o‘g‘li

O‘zbekiston Milliy Universiteti

Yurisprudensiya yo‘nalishi

3-bosqich talabasi.

+998930600316

Annotatsiya: *Ushbu maqolada mamlakatimizda nogironligi bo‘lgan shaxslarga yaratilgan alohida huquq va erkinliklar, ularning ta‘lim olishi, mehnat munosabatlariga kirishishda, ijtimoiy, iqtisodiy sohalaridagi imtiyozlari qonunchilikda qay tarzda kafolatlaganligi haqida ma‘lumotlar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Jahon Sog‘liqni Saqlash Tashkiloti, BMT, Nogironligi bo‘lgan shaxslar, mehnat huquqlari, ta‘lim olish, imtiyozlar.*

Abstract: *This article provides information on the special rights and freedoms created for persons with disabilities in our country, how their privileges in education, employment, social and economic spheres are guaranteed by law.*

Keywords: *World Health Organization, UN, Persons with Disabilities, labor rights, education, privileges.*

Butunjahon nogironlik hisobotiga ko‘ra, nogironlikning qaysidir shakliga ega bo‘lgan insonlar soni 1 milliarddan ziyodroq yoki dunyo aholisining 15%ni tashkil etadi, ularning 80% esa rivojlanayotgan mamlakatlarda istiqomat qiladi. Har yili davlatlar nogironlar huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularga munosib hayot tarzini yaratib berishga qaratilgan qonunlar qabul qiladi yoki xalqaro hujjatlarni ratifikatsiya qiladi. Nogironligi bo‘lgan shaxslar huquqlarini mustahkamlash, inklyuziv rivojlanishi, aholining barcha qatlamlari teng huquq va imkoniyatlarga ega bo‘lishlarini ta‘minlashda ya‘ni nogironligi bo‘lgan shaxslarning jamiyat hayotining barcha sohalarida faol ishtirok etishini ta‘minlash davlatlar ichki funktsiyaarining asosiylaridan hisoblanadi.

BMT Bosh Assambleyasining 1992-yil 14-oktyabrdagi 47/3-sonli Qarori asosida 3-dekabr Xalqaro nogironlar kuni tashkil etilgan bo‘lib, yurtimizda ham har yili nishonlab kelinmoqda. Ushbu sanani nishonlashdan asosiy maqsad – butun dunyoda amalga oshiriladigan dastur va loyihalarda nogironlar boshqa nogiron bo‘lmagan kishilar bilan teng huquqlilik asosida ishtirok etishini, nogironlarning manfaatleri, huquqlari inobatga olinishini, barcha mamlakatlarda nogironlarning qadr-qimmatini himoyalovchi qonunlar va

tartib-taomillarning joriy etilishini ta'minlab, barcha uchun ochiq va do'stona bo'lgan jamiyat qurishdan iboratdir.

Bu O'zbekiston hukumati olib borayotgan kuchli ijtimoiy siyosatning yana bir yaqqol isbotidir. Chunki mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab aholini ijtimoiy muhofaza qilishni yanada kuchaytirish, ayniqsa, ijtimoiy himoyaga ehtiyojmand nogironlarga hayotda keng imkoniyat va sharoitlar yaratib berish masalasiga alohida ahamiyat berib kelinadi.¹⁰⁷

Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiya BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 2006-yil 13-dekabrda qabul qilingan va 2008-yil 3-mayda kuchga kirgan. Konvensiya bilan bir paytda unga Fakultativ protokol qabul qilingan. 2021-yil fevral holatiga ko'ra Konvensiyaga – 182 davlat, Fakultativ protokolga 97 davlat ishtirok etmoqda.

Konvensiya kuchga kirishi bilan uning ijrosini nazorat qiluvchi, Konvensiyada ishtirok etuvchi davlatlarining ma'ruzalarini ko'rib chiqishga

vakolatli, ular bo'yicha takliflar va umumiy tavsiyalar beruvchi organ – Nogironlar huquqlari bo'yicha qo'mita (18 kishidan iborat) tashkil etildi.¹⁰⁸

Xalqaro standartlar asosida nogironligi bor shaxslarning huquqlari, erkinliklari va ularning qonuniy manfaatlarini himoya qilish davlatimiz diqqat markazida bo'lib kelimoqda. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 57-moddasida ham “Davlat nogironligi bo'lgan shaxslarning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalar obyektlari va xizmatlaridan to'laqonli foydalanish uchun shart-sharoitlar yaratadi, ularning ishga joylashishiga, ta'lim olishiga ko'maklashadi, ularga zarur bo'lgan axborotni to'sqinliksiz olish imkoniyatini ta'minlaydi” deb belgilangan.¹⁰⁹

2025-yilning I choragi yakuniga ko'ra, O'zbekistonda nogironligi bo'lgan shaxslar soni 1 031 609 nafarni yoki aholining 2,7 foizini tashkil etadi.

Nogironligi bo'lgan shaxslarning 465 645 nafari yoki 45 foizi ayollar, 565 964 nafari yoki 55 foiz erkaklar bo'lib, ularning 173 285 nafari 18 yoshgacha bo'lgan bolalar hisoblanadi. Bundan tashqari:

I guruh nogironligi — 94 722 nafar;

II guruh nogironligi — 695 372 nafar;

III guruh nogironligi — 67 006 nafar.

Nogironligi bo'lganlarning yoshi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich 30 yoshdan pensiya yoshigacha bo'lganlarda (493 879 nafar) belgilangan.

¹⁰⁷ <https://www.gazeta.uz/oz/2025/05/12/subsidiya/>

¹⁰⁸ <http://pravacheloveka.uz/oz/news/3-dekabrja-mezhdunarodnyj-den-invalidov->

¹⁰⁹ <https://lex.uz/docs/-6445145>. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi

2025-yilning o‘tgan davri mobaynida tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyalari tomonidan 17 499 nafar shaxsga birlamchi, 41 487 nafar shaxsga qayta nogironlik berilgan.

Ushbu raqamlardan bilish mumkinki, jamiyatimizda nogironligi bo‘lgan shaxslar aholining muhim qismini tashkil etadi va doimiy e‘tiborga muhtoj.

Aytish lozimki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, “Har qanday jamiyat taraqqiyotida uning kelajagini ta’minlaydigan yosh avlodning sog‘lom va barkamol bo‘lib voyaga yetishi hal qiluvchi rol o‘ynaydi” degan fikrlari jamiyatimizda o‘z tasdiqini topmoqda.

Bugungi bozor iqtisodiyotida nogironligi bo‘lgan shaxslarning bandligini ta’minlash, ularning ish joylarida munosib sharoitlar yaratish tizimi vujudga keltirilgan. Nogironligi bo‘lgan shaxslarning mehnatini huquqiy jihatdan tartibga solishning o‘ziga xos xususiyatlari O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksida

kafolatlangan bo‘lib, yakka tartibdagi huquqiy munosabatlarda, ish vaqti, ta’tillar va boshqa mehnat shart-sharoitlari borasida huquqiy hujjatlarda belgilangan qo‘shimcha imtiyozlardan foydalanishlari uchun sharoitlar yaratilgan.

Bu borada nogironligi bo‘lgan shaxslarning mulkiy huquqlari ham mamlakatimiz qonunchilikda kafolatlangan bo‘lib, Vazirlar Mahkamasining “Nogironligi bo‘lgan shaxsning va tarkibida nogironligi bo‘lgan shaxs bor oilaning elektron onlayn-auksion orqali yer uchastkasini sotib olish bilan bog‘liq xarajatlarini qoplab berish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” Qarori (122-son, 23.2023 y.)da Mablag‘ ajratish to‘g‘risida qarorda besh ish kunida imtiyozli toifadagi shaxslarning arizasida ko‘rsatilgan bank plastik hisob varag‘iga mablag‘ o‘tkazilishi ta’minlamoqda.

Ta’kidlash lozimki, nogironligi bo‘lgan shaxslar pensiyalariga nazar tashlasak qonunchilikda belgilangan tartibda I va II guruh nogiron deb topilgan shaxslarga, shuningdek chernobil yoki kasallik oqibatida III guruh nogironligi bo‘lgan shaxslarga nafaqalar tayinlash Bu O‘zbekiston Respublikasining 03.09.1993-yildagi 938-XII-son Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida’gi Qonunida belgilab berilgan.

Davlatimizda nogironligi bo‘lgan shaxslarga nisbatan jinoiy jazolarni qo‘llashda imtiyozlari mavjud bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi 45-moddasida “Majburiy jamoat ishlari nogironligi bo‘lgan shaxslarga nisbatan qo‘llanilmaydi” deya kafolatlangan.¹¹⁰

Nogironligi bo‘lgan shaxslar Davlat organlariga, tashkilotlarga va ularning mansabdor shaxslariga yakka tartibda yoki jamoa bo‘lib, murojaat qilish huquqi ta’minlanadi. Davlat organlari, tashkilotlar va ularning mansabdor shaxslari nogironligi bo‘lgan shaxslarning

¹¹⁰ <https://lex.uz/docs/-111453.O'zbekiston> Respublikasi Jinoyat kodeksi

arizalar, shikoyatlar, takliflarini o‘z vaqtida va tegishli tartibda ko‘rib chiqishi uchun javobgardir.

Nogironligi bo‘lgan shaxslarga ijtimoiy yordam ko‘rsatish izchillik bilan yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, yurtimizda hozirgi kunda ijtimoiy yordamning quyidagi turlari ko‘rsatiladi: pul to‘lovlari pensiyalar, nafaqalar, bir yo‘la beriladigan to‘lovlar reabilitatsiya qilishning texnik vositalari, surdotexnika, tiflotexnika vositalari yoki boshqa vositalar shu jumladan o‘rindiqli aravachalar, protez-ortopediya moslamalari, maxsus harfli matbuot nashrlari, ovoz kuchaytiruvchi apparatlar va signalizatorlar, subtitrl yoki sudo-tarjimali videomateriallar, shuningdek avtomobillar bilan ta‘minlashlar ham amalga oshirib kelinmoqda.

Har yili 500 nafargacha nogironligi bo‘lgan yoshlarga subsidiya ajratiladi, qarorga ko‘ra 2022 yil 1-yanvardan bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan nogironligi bo‘lgan shaxslarni ishga qabul qilish borasida ham va qabul qilgan ish beruvchilarga har bir xodim uchun 6 oyda BHMning 1,5 baravarida subsidiya beriladi.

2025-yil 8-may kuni “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning bandligini ta‘minlash tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risida”gi prezident farmoni [PF-85-son] qabul qilindi.¹¹¹

Farmon bilan asosiy maqsadlar etib quyidagilar belgilandi:

nogironligi bo‘lgan shaxslarning samarali faoliyat ko‘rsatishi uchun maxsus xizmatlar tizimini joriy etish;

nogironligi bo‘lgan yoshlarni zamonaviy kasblarga o‘qitish, ularning mehnat bozoriga kirishi uchun qo‘shimcha imkoniyatlar yaratish;

2025-yil yakuniga qadar 80 ming nafar nogironligi bo‘lgan shaxsning barqaror bandligi va munosib daromad topishini ta‘minlash.

2025-yil 1-iyundan boshlab:

I va II guruh nogironligi bo‘lgan shaxslarni ishga qabul qilgan tadbirkorlik subyektlariga 50 million so‘mgacha subsidiya ajratiladi;

subsidiya surdotarjimon, psixolog va hamrohlik xizmatini tashkil qilish xarajatlarini qoplash uchun ajratiladi;

jismoniy shaxslarga hamrohlik xizmatini o‘zini o‘zi band qilgan shaxs sifatida ko‘rsatishga ruxsat beriladi.

Shuningdek, “Yagona milliy ijtimoiy himoya” axborot tizimida Mehnatga layoqatli nogironligi bo‘lgan shaxslarning elektron reyestri yuritiladi.

¹¹¹<https://lex.uz/acts/-5049511>. Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida

“Yuridik yordam” axborot tizimida nogironligi bo‘lgan shaxslarga bepul huquqiy yordam berish uchun alohida murojaat bo‘limini yaratilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 15-oktabrda qabul qilingan “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi Qonunida nogironlarning huquqlarini ta‘minlash sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari belgilangan bo‘lib, ular nogironlarning kamsitilishiga yo‘l qo‘ymaslik yuzasidan kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqish, nogironligi bo‘lgan shaxslarning sha‘ni va qadr-qimmatini himoya qilish bo‘yicha asosiy qoidalar mustahkamlangan.

Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki, jamiyatimizda nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari va erkinliklarini ta‘minlash, ularni jamiyatning tom ma‘nodagi haqiqiy a‘zosiga aylantirish davlatimizning ustuvor vazifalaridan biriga aylanishi lozim. Nogironligi bo‘lgan shaxslarga tibbiy yordamni kuchaytirish orqali ularni sog‘lom qilib tarbiyalash, ularni kelajakda o‘z imkoniyat doirasidan kelib chiqqan holatda kasb-hunarga jalb etish borasidagi imkoniyatlarni kengaytirish muhim.

Hozirda dunyo aholisini 15% dan ziyodini nogironlar tashkil etib kelyotgan bo‘lsa demak ushbu ko‘rsatgichdan kelib chiqqan holda ularning ta‘limiga, sport bilan shug‘ullanishiga, umuman olganda ijtimoiy hayotda o‘z o‘rnini topishi uchun sharoitlarni yaxshilash alohida ahamiyatga ega.

Turmush qurayotgan yoki qurgan oilalarni yuqori darajada tibbiy nazoratdan o‘tkazib turishni yanada takomillashtirish zarur, chunki kelajak avlod uchun dunyoga kelayotgan farzand sog‘lom tug‘ilishi jamiyatning poydevori bo‘ladi va bu borada jamiyatimizda sog‘lom farzand tug‘ilishi uchun tibbiy nazoratni yanada mukamallashtirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikas Konstitusiyasi. <https://lex.uz/docs/-6445145>
2. O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi. <https://lex.uz/ru/docs/-6257288>
3. Respublikasi Jinoyat kodeksi <https://lex.uz/docs/-111453>. O‘zbekiston
4. ”Inson Huquqi” Rustambayev M.X. Darslik Toshkent “Yuridik adabiyotlar publish” 2022- yil
5. Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida. O‘RQ-641-son. 15.10.2020-yil.